



TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Nuritdinova X.N.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetentsiya, til, kasbiy, rivojlanish, ta'lim, kommunikativ, lingvistik, taraqqiyot, ma'naviyat, intellektual, ilm-fan, strukturaviy komponent.

Ключевые слова: компетентность, язык, профессионал, развитие, образование, коммуникативное, языковое, развитие, духовность, интеллектуальная, наука, структурный компонент.

Key words: competence, language, professional, development, education, communicative, linguistic, development, spirituality, intellectual, science, structural component.

Jahonda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion modellari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) dasturlarida talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim texnologiyalarini qo'llash, talabalarni kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlash jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim sifatini ta'minlashning pedagogik, didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini, o'qitishning variativ shakllari hamda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishda ilg'or modellarni joriy qilish, kadrlar resurslarini yaratish strategiyalarini isloh qilish, ta'lim jarayonini modellashtirish, uzluksiz kasbiy sifatlarni va kompetensiyalarni rivojlantiruvchi ta'limiy faoliyatni takomillashtirish, o'quv jarayoni sifatiga qo'yiladigan talablar mazmunini boyitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, talabalarning kommunikativ kompetentligi va kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish darajasi



diagnostikasini amalga oshirish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Kommunikativ kompetentlikning pedagogik nazariyalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak turli xil didaktik tizimlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, yangilarini joriy qilishga urinish va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish davomida talabalarni kelgusi faoliyatga tayyorlash ularning kasbiy shakllanish jarayonining quyi tizimining ajralmas qismi ekanligi bo'lishiga qaramay, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ta'lim jarayonini tashkil etishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar va ularda didaktik madaniyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligi ayon bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim mazmuni, o'qitish mazmuni, o'quv materiali va boshqa shu kabi tushunchalarning tahliliga bag'ishlangan ko'plab didaktik asarlar mavjud. Ko'rsatib o'tilgan tushunchalarning mohiyati chegaralarini bir-biridan aniq ajratib olish tegishli didaktik tadqiqotlarning ehtiyojlaridan shartlandi va ta'lim mazmuniga ta'rif berish muammosi bilan bog'liq ko'plab muhim vazifalarni yechishga bo'lgan aniqroq va muayyan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Ta'limning mazmuni murakkab, dinamik, ko'p komponentli va ko'p darajali tizim sifatida o'rganiladi. Adabiyotlarning tahlili ta'lim mazmuni muammolarini izlab chiqishning ko'p aspektli ekanligini va mualliflarning uning tarkibi, strukturasi, xossalari, saralab olish tamoyillari, optimallashtirish tamoyillari va mezonlari masalalari bo'yicha qarashlarning bir ma'noli emasligini, hamda ta'lim mazmunini shakllantirishga bo'lgan: madaniy-tarixiy, bilimlarga asoslangan, madaniyatshunoslikka asoslangan va boshqa yondashuvlarning turli-tumanligini ko'rsatdi.

Har bir yondashuvni tasvirlashda batafsil to'xtab o'tmasdan, ta'lim mazmuni konsepsiyasini qurishga bo'lgan madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuv eng ko'p tan olingan yondashuv ekanligini ta'kidlab o'tamiz.

Ijtimoiy tajribaning elementlarini o'zlashtirish insonga jamiyatda nafaqat muvaffaqiyatli amal qilish, unda moslashib ketish, balki mustaqil, ijodiy tarzda ish yuritish, amal qilish imkonini beradi. Ijtimoiy tajribani tahlil qilish asosida, olimlar ta'lim mazmunining to'rt turini ajratib ko'rsatishadi.

1. O'zlashtirilishi tahsil oluvchilar ongida olamning tabiiy fanlar nuqtai nazaridan timsolini shakllantirishni ta'minlaydigan, bilish va amaliy faoliyatga bo'lgan to'g'ri metodologik yondashuvlar bilan qurollantiradigan tabiat, jamiyat, tafakkur, faoliyat texnikasi, usullari haqidagi bilimlar tizimi.

2. Malakalar va ko'nikmalar tizimi, ya'ni ham intellektual, ham amaliy xarakterdagi faoliyatning jamiyatga ma'lum bo'lgan usullarini, hamda u yoki boshqa o'quv fani uchun xos bo'lgan, va barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan



va olingan bilimlar asosida shakllantiriladigan va insonga insoniyat olgan axborotni saqlash, qayta ishlash va qo'llashga yordam beradigan malakalar va ko'nikmalarni amalga oshirish bo'yicha olingan tajriba.

3. Ijodiy faoliyatining yangi muammolarning yechimini izlashga, voqyelikni ijodiy o'zgartirishga bo'lgan tayyorlikni ta'minlashga mo'ljallangan tajribasi.

Bilimlar va malakalar bilan birgalikda shaxsning e'tiqodlari va ideallari, qadriyatlarini, ma'anaviy sohasi tizimini shakllantirishning sharti hisoblanadigan olamga, bir-biriga bo'lgan emotsional-irodaviy munosabat tajribasi va me'yorlari.

Ta'lim mazmuni deganda olimlar bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning pedagogik jihatdan moslashtirilgan tizimini, ijodiy faoliyat tajribasini va o'zlashtirilishi har tomonlama rivojlangan, jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatini qayta ishlab chiqarish (saqlash) va rivojlantirishga tayyorlangan shaxsni shakllantirishga emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunishadi.

Olima L.M. Perminovaning fikriga ko'ra, ta'limning mazmuni "bilimlarni, faoliyat usullarini, ijodiy faoliyat tajribasi va odamlarga, olamga, o'ziga va o'z ta'limiga nisbatan emotsional-irodaviy munosabatlarni o'z ichiga olgan integrativ tizimi bo'lib, uni faoliyatning invariant strukturasi o'zlashtirish dialogik rejimda amalga oshiriladigan sub-faol, tashkil etilgan va boshqaruvchan, natijasi hayot makonida o'zining kimligini belgilash, anglash va o'zini mustaqil tartibga solish yo'li bilan amalga oshiriladigan shaxsning ma'naviy, fuqarolik va professional o'z taqdirini belgilash jarayonini ifodalaydi"

Ijtimoiy tajriba, madaniyat ta'lim mazmunini saralab olishning global manbalari hisoblanadi, ulardan tashqarida ta'lim mazmuniga hissa qo'sha oladigan hech narsa yo'q. Jamiyat taraqqiyotining har bir darajasida mazmun asosiy tomonni o'z ichiga oladi: mazmun tomon – bu bilimlar, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, va prosessual tomon – u faoliyatning turlari va shakllarini o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni ijtimoiy tajribaning ushbu ikki tomonini o'z ichiga olishi va uning zarur ravishda saralab olingan va ijtimoiy buyurtmaning maqsadlariga erishishni ta'minlash maqsadida pedagogik jihatdan ishlov berilgan (qayta ishlangan) bir qismini ifodalashi zarur.

V.V. Kravevskiy o'qitish mazmunini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilishni taklif etadi:

- o'qitish mazmunining zamonaviy ishlab chiqarish talablari va tegishli mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy bashoratiga mos kelishi tamoyiliga;
- o'qitishning mazmun va protsessual tomonlarini hisobga olish tamoyiliga (o'quv materialini ishlab chiqishda o'qitishning qonuniyatlarini, metodlarini, tamoyillarini hisobga olish zarur; dasturlar va darslik kitoblarida mazmun bilan bir qatorda uni uzatish va o'zlashtirish, va o'zlashtirish darajalarini ham aks ettirish zarur);[41]

- ta’lim mazmunini qurishga yagona yondashuv tamoyiliga (nazariy aspekt, o’quv fani, o’quv materiali, pedagogik faoliyat, tahsil oluvchining shaxsi)

O’quv fanining mazmunini aniqlashtirishning eng muhim jihati uning gumanizatsiyasi hisoblanadi. Ta’limni insonparvarlashtirish zamonaviy oliy ta’limning asosiy maqsadi o’zida professionalizmni va gumanistik dunyoqarashni mujassam qilgan, umumiy madaniyatlilik va kommunikativ kompetentlilik darajasiga ega ijodkor shaxsni tarbiyalashni anglatadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonida shaxsning rivojlantirilishi zarur bo’lgan asosiy sifati bu kommunikativ faoliyatning xar bir shaxs uchun individualligidir. Ya’ni, talabalarining kommunikativ kompetentligi shaxsning shaxsiy-kommunikativ, didaktik, gnostik malaka va ko’nikmalari hamda ularda o’quv jarayonini samarali tashkil etish tajribasining turg’un tizimi orqali amaliyotda qo’llanadigan kasbiy jihatdan muhim sanalgan sifati tushuniladi. Shuningdek, oliy ta’lim jarayonida talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda o’zini-o’zi yanada chuqurroq o’rganish uchun boshqa odamlar bilan munosabatdagi konfrontatsiyaga alohida e’tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Demak, kommunikativ kompetentlik yesa, suhbatdoshning kommunikativ niyatini adekvat talqin qilish, biror bir jamiyat a’zosining semantik va pragmatik xususiyatlarini tushunish istagi va qobiliyati bu ijtimoiy muloqot orqali boshqa bir ijtimoiy hamjamiyatlik dunyosini yaratishdir. Talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni belgilab beruvchi kasbiy jihatdan muhim sanalgan sifatlarni rivojlantirish talabalar bilan hamkorlikdagi kommunikativ faoliyat jarayonida amalga oshadi.

Ta’kidlab o’tilganidek, talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari kommunikativ yo’naltirilganligi, bilimlarni yangilanishini amalga oshirishi lozim. Shuningdek talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari mantiqiy kompozision ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilgan bo’lishi lozim.

Talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining mantiqiy kompozision ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilganligi ularning kommunikatsiya jarayonlarida kommunikativ munosabatlarni mantiqan to’g’ri va va mukammal amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Mantiqiy mulohaza kognitiv jarayonlarga qaratilgan va fikrlash, diqqat, xotira xususiyatlarini tahlil qilish va baholash bilan bog’liq bo’lgan eng oqilona shakldir. Analitik fikrlash mantiqiy tahlilni o’tkazish va ma’lumotlarni sintez qilish qobiliyatini ham o’z ichiga oladi. Demak, mantiq - bilish jarayonida haqiqatga erishish yo’llarini hissiy tajribadan emas, balki ilgari olingan bilimlardan bilvosita



yo‘l bilan o‘rganadi. O‘rganilayotgan fikr mavzusining farqini va uning ko‘rib chiqilayotgan masalaning boshqa jihatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini yaxshiroq anglab etish uchun mavjud bo‘lgan yechimlardan qanday xulosaga kelish va fikr mavzusi to‘g‘risida haqiqiy bilimlarni olishni aniqlash mantiqning asosiy vazifalaridan biridir. Mantiqiy fikrlash mantiqiy tushunchalardan foydalanadigan fikrlash jarayonidir, bu dalillar, fikr yuritish bilan tavsiflanadi va maqsadi mavjud xolatlardan oqilona xulosa chiqarishdir. Mantiqiy fikrlash – bu fikrlash jarayoni bo‘lib, unda bo‘ljak o‘qituvchi aniq tushunchalardan foydalanadi. U masalani javobini avvalgi olingan bilimlariga asoslangan xolda qo‘llash va analiz qilish orqali aniqlaydi.

Demak, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining mantiqiy kompozision ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi ularning kommunikatsiya jarayonlarida kommunikativ munosabatlarni mantiqan to‘g‘ri va mukammal amalga oshirishga tayyorgarlikni rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Yemelyanov Yu.N. Teoriya formirovaniya i praktika kommunikativnoy kompetentnosti: avtoref. dis. ..d-ra psixol. nauk: 19.00.05. – L.: Izd-vo LGU, 1991.
2. Ivanov D.A., Mitrofanov K.G., Sokolova O.V. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. Problemi, ponyatiya, instrumentariy: ucheb.-metod. posobiye. – M.: APKiPPRO.
3. Xutorskoy A.V. Klyucheviye kompetensii i obrazovatelnye standarti // Eydos: internet-jurnal «Sentr distansionnogo obrazovaniya». – 2002. – 23 apr.
4. Sokolova V.V. Kultura rechi i kultura obshyeniya – M.: Prosveshyeniye, 1985.
5. Nuritdinova X.N. “Strukturnaya organizatsiya kommunikativnoy kompetensii” International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England <https://conferencea.org> 25th Oct. 2022 [1]
6. Hymes, D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / J.B. Pride; J. Holmes (ed.). – Harmondsworth : Penguin Books, 1972.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta‘lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni mohiyat tavsifi keltirilgan bo‘lib muloqotning psixologik funksiyalari, muloqotning mexanizmlari va vositalarini muloqotning funksiyalari, shaxsning xususiyatlari va boshqa psixologik omillarga bog‘liq ravishda shakllantirilishi va amal qilishi hamda ilmiy adabiyotlarning tahlilidan misollar keltirilgan

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены сущность коммуникативной компетентности в аспекте проблем общения, психологические функции общения, механизмы и средства общения, формирование и реализация функций общения в зависимости от функций общения, особенностей личности и других психологических факторов, а также примеры из анализа научной литературы.

SUMMARY

This article describes the essence of communicative competence in terms of communication problems, the psychological functions of communication, the mechanisms and tools of communication, the formation and implementation of communication functions depending on the functions of communication, personality characteristics and other psychological factors, and examples from the analysis of scientific literature are given.